

## “Atrof-muhit va resurslar iqtisodiyoti” mavzusida modul kurs

Iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, suv va yer resurslarining ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi va shunga o'xshash boshqa muammolar bugungi kunda nafaqat O'zbekiston uchun balki, butun jahon oldida turgan dolzarb muammolar hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf yetish uchun yer yuzida yashab turgan har bir shaxs mas'uldir.



Joriy yilning 9, 11, 16, va 18 mart kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining talaba-magistrlari, yosh olim va tadqiqotchilarining atrof-muhit iqtisodiyoti to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida SUSADICA loyihasi tomonidan “Atrof-muhit va resurslar iqtisodiyoti” mavzusida modul kurs tashkil etildi. Dastlab, ushbu modul kursda ishtirok etish istagida bo'lgan talaba-magistr va yosh olimlarni aniqlash uchun onlayn so'rovnoma tashkil etildi. Kelib tushgan arizalar va belgilangan talablar bo'yicha 17 nafar tadqiqotchilar saralab olindi.



Ushbu kurs atrof-muhit iqtisodiyoti yo'nalishida chuqur bilim va amaliy tajribaga ega bo'lgan Germaniyaning Gissen universiteti doktori Maykl Xubler tomonidan olib borildi. Onlayn tashkil etilgan kurs davomida professor mavzuni atroflicha, hayotiy misollar bilan yoritib berdi. Shuningdek, mavzu doirasida tayyorlagan video darslar va taqdimotlarini talabalarga taqdim etildi. Interaktiv shaklda tashkil etilgan lektsiyalarda yosh tadqiqotchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Professor tomonidan berilgan mavzu doirasida vazifalarini o'z vaqtida bajarib amaliy ko'nikmalarini yanada boyitishdi.



Kurs yakunida professor Maykl Xubler tomonidan ishtirokchilarga odindan tayyorlangan mavzular yoki o'zlarining mavzulari bo'yicha ilmiy asoslangan essay yozish vazifasi berildi. 19 mart kuni SUSADICA loyihasining majlislar zalida essay yozish bo'yicha loyiha koordinatori N.Muxamedova tomonidan ishtirokchilarga konsultatsiya o'tib berildi. Essaylarni topshirish muddati belgilab olindi. Ishtirokchilar tomonidan yozilgan essaylar natijalariga ko'ra SUSADICA loyihasi tomonidan sertifikatlar topshiriladi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**